

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 631:338.45:6П2.15.7(575.16)

XAYDAROVA SITORA SURANBAY QIZI

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ASOSIDA
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI
OSHIRISH**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

I.f.d. Ruziyeva Dilobar Isomjonovna

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Yashil” iqtisodiyot kafedrasida dastlabki himoyadan
o‘tgan.

7 -sonli bayonnoma “22” aprel 2024 y.

Ilmiy rahbar: Ro‘ziyeva D.I. DSc, prof. v.b.

Talaba: Xaydarova S.S.

Dissertatsiya Iqtisodiyot fakultetida 2024 yil “13.05”
№ 1/18 raqami bilan ro‘yhatga olingan.

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Yashil iqtisodiyot”

kafedrasi mudiri, dots.I. Xotamov

“07” may 2024 yil

Himoya 2024 yil “16” 05 soat 14⁰⁰ da “Texnopark” mas’uliyati
cheklangan jamiyada bo‘lib o‘tadi.

ANNOTATSIYA

Raqamli texnologiyalar davrida aholi turmush farovonligini ta'minlashda muhim o'rin tutadigan chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va uning iste'molini aholi orasida kech miqyosda rivojlantirish, bundan tashqari sohada olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir. Mintaqada chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni iste'mol qilishda raqamli texnologiyalarning rolini oshirish va rivojlanib borayotgan davlatimizning ijtimoiy negizi bo'lmish aholi farovonligini mustahkamlash va iste'mol savatini to'ldirish kabi muhim, dolzarb masalalarning nazariy hamda amaliy materiallar bilan to'ldirish va tahlil qilish sharoitida tadqiqot olib bordik. Mavzuyimiz doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni o'rganib chiqdik.

Ilmiy ishimizda nafaqar nazariy bilimlar, balki mamlakat miqyosida chorva yerlari va mollari, ularning mahsulotlarini ishlab chiqarish tahlil jarayonlari o'rganildi. O'rganilgan ma'lumotlarimiz va tahlil natijalarimizdan kelib chiqib, chorva mahsulotlarimiz iste'molini raqamli texnologiyalarga tayangan holda rivojlantirish, butun aholi orasida ushbu texnologiya yordamida insonlarning chorva mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish va byudjetimiz jamg'armasiga o'z xissamizni qo'shish yuzasidan xulosa, takliflar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: chorvachilik, chorvachilik mahsulotlari, qishloq xo'jaligi, fermerlar, YAIM, raqamli texnologiya, yirik shoxli qoramollar, sut, go'sht, tuxum, asal, platforma, inson farovonligi, iste'mol indeksi, iste'mol savatchasi, raqobatbardoshlik

ANNOTATION

In the era of digital technologies, the issue of expanding the production of livestock products, which plays an important role in ensuring the well-being of the population, and developing its consumption among the population, as well as supporting the reforms carried out in the sector, is one of the strategic directions of the state policy. Filling with theoretical and practical materials and analysis of important, topical issues such as increasing the role of digital technologies in the production and consumption of livestock products in the region and strengthening the welfare of the population, which is the social basis of our developing country, and filling the consumption basket We conducted research under the conditions of doing. We studied the research works, domestic and foreign literature carried out within the framework of our topic.

In our scientific work, not only theoretical knowledge was studied, but also livestock land and livestock, and the analytical processes of production of their products at the country level. Based on the results of our studies and analysis, to develop the consumption of livestock products based on digital technologies, to fully satisfy the needs of people for livestock products among the entire population with the help of this technology, and to contribute to the fund of our budget. We have drawn up conclusions and proposals regarding swelling.

Keywords: livestock, livestock products, agriculture, farmers, GDP, digital technology, cattle, milk, meat, eggs, honey, platform, human welfare, consumer index, consumer basket, competitiveness

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA	3
MUNDARIJA	5
KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YXATI	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO'YXATI	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR	8
KIRISH	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	12
Tadqiqot maqsadi va vazifalari	13
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	13
Tadqiqot obyekti va predmeti	15
Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:	16
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	16
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	18
1.1. Kirish	18
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar	18
1.3. Mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	22
II-BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	28
2.1. Tadqiqot dizayni	28
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	28
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	29
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	29
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	30
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy ahamiyati	31
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	32
3.1. Raqamli texnologiyalar davrida chorvachilik mahsulotlari va ularning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy asoslari	32
3.2 Navoiy viloyatida chorva mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish holati tahlili	41
3.3 O'zbekistonda chorva mahsulotlarining iste'molini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning rolini oshirish va uni qo'llab-quvvatlashga oid takliflar va tavsiyalar	55
XULOSA	63
Foydalanilgan adabiyotlar	66

KIRISH

Raqamli texnologiyalar hamda raqamli iqtisodiyot shiddat bilan kirib keldiki, bugungi kunda nafaqat kundalik hayot tarzimizda, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish chorva mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga o'z faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi. Samarali ishlab chiqarish tizimlarini yaratish hamda atrof-muhitga sabiy ta'sirni kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan raqamli texnologiyalar roli kundan kunga sezilarli darajada o'z aksini ko'rsatmoqda.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda qishloq xo'jaliging ajralmas tarmog'i hisoblangan chorvachilik sohasini qo'llab-quvvat, sohani himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining qator qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilingan. Jumladan bularga: "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹, "Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"², "Chorvachilik xo'jaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi"³, "Chorvachilik tarmog'iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash-ga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5017-son qarori, 03.03.2021 yil. <https://lex.uz/docs/-5317849>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-285-son qarori, 24.08.2023 yil. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6583141>

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Chorvachilik xo'jaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori" 26.01.2024 yildagi 52-son. <https://lex.uz/docs/-6780922>